



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

14. Berdiyev, B. Konvensial Yondashuv Asosida Talabalarni Mustaqil Ta'lim Olish Samaradorligining Didaktik Imkoniyatlarini Rivojlantirish. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*, 675762.
15. Xolmuratov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 371-374.
16. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. *Электронный инновационный вестник*, (2), 23-24.

NUKUS SHAHRIDA PARRANDACHILIK XOJALIKLARI HAMDA AHOLI XONADONLARIDA PARRANDALAR PULLOROZ KASALLIGINI EPIZOOTOLOGIK MONITORING QILISH

Saribaeva E.S¹., Murodov X.U².

¹*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

²*Veterinariya ilmiy tadqiqot institute Qashqadaryo ilmiy tajriba stansiyasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Parrandalar orasida Pulloroz kasalligining tarqalishi hamda etiologik omillari o'rganildi. Buning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shaxri ayrim parrandachilik xo'jaliklarida va aholi xonadonlaridagi parrandalar orasida uchraydigan infeksiya va bakterial kasalliklar bo'yicha epizootik holati tekshirildi. Kasalliklarga epizootologik, klinik, patologoanatomik, bakteriologik, virusologik IFA tekshirish natijalariga asoslangan holda tashxis qo'yildi. Maqolada kasallikka qarshi kurashishning kompleks usullari sanitariya-gigiyena tadbirlari, antikoksidial dorilar, vaksinalar va biologik nazorat choralari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Parrandachilik, pulloroz, *Salmonella pullorum*, kontagioz, profilaktika, antikoksidial dorilar, dezinfeksiya, vaksina.

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillarda mamlakatimizda insonlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, parrandachilikni rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, sut, tuxum) bo'lgan talabni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi farmoni, 2018 yil 13-noyabrdagi PQ-4015-son «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar», 2022 yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 15-iyundagi PQ-281-son «Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024 yil 27-iyundagi PQ-238-son «Parrandachilik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar malumotlari bo'yicha **Pulloroz** (lotincha: *Pullorosis*) - tovuqlarda uchraydigan, ayniqsa yosh parrandalarning *o'ta kontagioz infeksiya* kasalligi bo'lib, jo'jalarda o'tkir, voyaga yetgan tovuqlarda tuxumdonning yallig'lanishi va sariqlik peritoniti yoki yashirin klinik belgisiz kechish bilan xarakterlanadigan kasallik hisoblanadi. Pulloroz parrandachilikda, jo'jalarning birinchi bor aniqlangan kasalliklaridan biri hisoblanadi. Qo'zg'atuvchisi 1900-yilda Amerikalik olim Rettger tomonidan aniqlanib, unga *Bacillus pullorum* deb nom berilgan, keyinchalik uni *Salmonella pullorum - gallinarum* deb atashgan. Ko'pgina mamlakatlarda parrandalarning pulloroz va tif kasalliklari alohida kasalliklar hisoblanib, pullorozni *S. pullorum*,

tifni esa *S.gallinarum* qo'zg'atadi deyiladi. Dastlabki davrlarda ushbu kasallik "oq batsilyar ich ketish" deb yuritilgan, biroq unda har doim ham oq diareya kabi klinik holatlar kuzatilmaydi. 1910-yillarga kelib, jo'jalarni inkubatoriyalarda ochirish yo'lga qo'yilgach, pulloroz Amerikada, Kanadada, keyinchalik Fransiya, Belgiya, Italiya, Vengriya, Yaponiya, Avstraliya mamlakatlariga tarqalgan. Sobiq Ittifoqda kasallik 1926-yili Angliyadan keltirilgan jo'jalar orasida P.V.Sizov tomonidan aniqlangan. Keyinchalik ushbu kasallik Kavkazorti, Ukraina, Belarus va boshqa hududlarda ro'yxatga olingan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qayd etilgan.

Jumladan, O'zbekistonda 1960-yillardan boshlab, parrandachilik xo'jaliklarida ushbu kasallik uchray boshlagan. Bu holatni kelib chiqishiga sabab inkubatoriyaga qo'yiladigan tuxumlarni pulloroz kasalligi bo'yicha nosog'lom xo'jaliklardan olinganligi sababchi bo'lgan. Mazkur kasallik bilan kasallangan parrandalarning o'lish darajasi 10-70 % ni tashkil etadi.

Pulloroz kasalligi yilning barcha fasllarida uchraydi, ko'pincha, boshqa infeksiyon va invazion kasalliklar bilan birgalikda kechishi mumkin. Pulloroz kasalligiga qarshi samarali kurashish chora-tadbirlari qo'llanilmaganda yuqori kasallanish (2-60%) va o'lim (4-70%) darajalariga ega bo'lib statsionar holatga o'tadi. Qafaslarda saqlanuvchi parrandalar orasida o'lim ko'p uchrashi o'rganilgan.

Mazkur kasallikka tashxis qo'yish, davolash va oldini olish tadbirlari uchun maxsus kompleksli usul va vositalar ishlab chiqilmagan. Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan biopreparatlarni qo'llash uchun ko'p vaqt va valyuta sarflanishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hududida parrandalar Pulloroz kasalligining epizootologik monitoringi va qarshi kurash choralarini takomillashtirishdan iborat

Tadqiqot ob'ekti va uslubiyatlari. Ilmiy tadqiqotlarning eksperimental qismi 2025-2027 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hududidagi parrandachilik xo'jaliklari, Respublika Hayvon kasalliklari tashxisi va ozuq-ovqat xavfsizligi davlat markazi hamda **SDVMChBU ning Nukus filiali vivarisida** tovuqlar orasida Pulloroz kasalligining tarqalishi va undagi patomorfologik o'zgarishlarini aniqlash hamda kasallikka tashxis qo'yish uslublari qo'yidagi tajribalar asosida o'tkazildi.

Laboratoriya tajribalarida Pulloroz kasalligi bilan tabiiy sharoitda zararlangan va zararlanmagan katta yoshdagi «Loman Braun klassik va Loman LSL klassik» hamda mahalliy zotga mansub tovuqlarda olib borildi.

Ichki organlardagi patomorfologik o'zgarishlarni o'rganish maqsadida ulardan umumiy qoidalariga asoslangan xolda kasallikka xos patoanatomik o'zgarishlar aniqlandi.

Tadqiqotning natijalari. Parrandalar orasida Pulloroz kasalligining tarqalishi hamda etiologik omillari o'rganildi. Buning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shaxri ayrim parrandachilik xo'jaliklarida va aholi xonadonlaridagi parrandalar orasida uchraydigan infeksiyon va bakterial kasalliklar bo'yicha epizootik holati tekshirildi. Tekshirish uchun parrandachilik fabrikalarining veterinariya xizmati xodimlari tavsiyasiga asosan tanlab olindi. Fabrikalarda va ayrim axoli xonadonlarining barcha parrandalari klinik ko'rikdan o'tkazildi, kasallari ajratilib davolandi, o'lgan yoki majburiy so'yilgan parrandalar patologoanatomik tekshiruvlardan o'tkazildi. Veterinariya-sanitariya, oziqlantirish, asrash tadbirlarining qay darajada tashkil qilinganligi bilan tanishildi. Kasalliklarga epizootologik, klinik, patologoanatomik, bakteriologik, virusologik IFA tekshirish natijalariga asoslangan holda tashxis qo'yildi. Tahlil natijalariga ko'ra ayrim parrandachilik xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, Klaster, MChJ va xususiy tadbirkorlarda mavjud parrandalarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida Pulloroz kasalligiga tekshirilgan hududlarda parrandalarning kasallanishi jami tekshirilgan 12350 bosh soniga nisbatan 5 foizni tashkil etib, kasallikdan o'lim darajasi 12,4 foiz atrofida bo'lganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Pulloroz Nukus shaxri hududlarida keng tarqalib ketishi, ayniqsa yosh jo'jalar orasida uchrashi 10-55% bulib shundan 11-16,5 foizgacha o'lim kuzatilishi parrandachilik mutaxassislariga amaliy tushuntirildi, hamda kasalliklarga o'z vaqtida

immunofermentli tahlilda PZRda tezkor tashxis qo'yish (kasal bor yoki yo'q ekanligi aniqlandi) va ularga qarshi chora-tadbirlarning to'g'ri o'tkazilishiga erishildi. Parrandalar Pulloroz kasalligini oldini olish va qarshi kurashish bo'yicha MChJ va aholida mavjud parrandalar egalari hamda parrandachilik xo'jalik mutaxassislariga parrandalarda uchraydigan infeksiyon kasalliklar ichida Pulloroz (Pullorosis) tovuq otryadiga mansub yosh parrandalarning o'ta kontagioz infeksiyon kasalliklardan biri bo'lib, voyaga yetgan tovuqlarda tuxumdonning yallig'lanishi va sariq peritonit yoki yashirin klinik belgisiz kechishi bilan xarakterlanadi.

Pulloroz kasalligi tabiiy sharoitda tovuq ba kurka jo'jalari juda moyil, ko'pgina yovvoyi parrandalar, tustovuqlar, oq qush chumchuqlar va boshqa qushlar kamroq moyil. Ularda S.typhimurium qo'zg'atgan kasallik kuzatiladi. Pulloroz qo'zg'atuvchisi alimentar yoki aerogen yo'l bilan organizimga kirib, ichaklar va nafas olish a'zolaridan qonga o'tadi va u orqali butun toqimalarga tarqaladi, ko'proq hollarda jigar, taloq, buyraklar, tuxumdon va boshqa a'zolarida joylashadi hamda u yerlarda ko'payish evaziga yallig'lanishni keltirip shiqaradi.

Kasallikning tarqalishining oldinmi olishda nomaqbul omillarni yoqotish hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunku ular yashirin otuvchi Pulloroz qozgatuvchisini faollashtirishi haqida ilmiy amaliy tavsiyalar berildi.

Kasallikka qarshi kurash choralari. Pullorozni profilaktika qilish uchun jo'jalarning 3-7 kunligidan boshlab ozuqa bilan 1000 bosh jo'jaga 4 gr hisobida furazolidon yoki 4 gr levomitsetin berilsa, samarasi yaqxshi bo'ladi. Sanoat asosida parvarish qilinayotgan parrandalarga oziqa tarkibida 0,04-0,06% furozolidonni 15 kun davomida berish, keyin 3-5 kunlik tanafusdan so'ng yana davolash kursini davom ettirish yaxshi samara beradi.

Xulosa. Pulloroz klinik namoyon bo'lgan yosh, voyaga yetmagan parrandalar so'yiladi va yo'qotiladi. Parrandalar orasida Pulloroz kasalligi organizmda uchrashi natijasida ularda murakab kilinik, patomorfologik o'zgarishlar kuzatilishi aniqlandi. Shuningdek kasalliklarni o'z vaqtida emlash maqsadga muvofiqdir. Kasalliklarni davolagandan ko'ra oldini olgan 25-30% gacha iqtisodiy samara birishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ниязов Ф.А., Ибодуллаев Ф.И., Юсупов М.Г. Патоморфологические изменения в организме кур при пуллорозе. // Зооветеринария – 2008 – №6 - 7. С.18.
2. Красиков, А.П. Эпизоотическая ситуация по инфекционным болезням, в том числе и респираторному миеоплазмозу на птицефабрике «Сибирская» / А.П. Красиков, В.Г. Крышин, ОА Сунцова // Проблемы и перспективы развития науки в Институте ветеринарной медицины ОмГАУ : сб. науч. тр. - Омск, 2002. - С. 128-133.
3. Elmurodov B.A., Murodov X.U., Navruzov N.I., Kurbonov F.M. Pathomorphological Changes in Poultry Pasteurelliosis, Pullorosis and Colibacteriosis Diseases // Middle European Scientific Bulletin. Academic Journal, ISSN 2694-9970 Volume 29 | Oct-2022. -P.87-92.
4. Мониторинг эпизоотической обстановки по инфекционным болезням птиц в Западно-Сибирском регионе и Алтайском крае / А.П. Красиков, Н.В. Рудаков, О.А. Сунцова и др. // Роль ветеринарного образования в подготовке специалистов агропромышленного комплекса : сб. науч. тр. -Омск, 2003. -С. 163-171.
5. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 98-102.
6. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA TA'LIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TA'LIM

- TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. Ta'lim sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammolar va echimlar , 2 (4), 85-88.
7. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».
 8. КОМИЛЖОНОВ, С. ВЕТЕРИНАРНАЯ МЕДИЦИНА В XXI ВЕКЕ: РОЛЬ БИОТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. Витебская государственная академия ветеринарной медицины, Витебск КОНФЕРЕНЦИЯ: ВЕТЕРИНАРНАЯ МЕДИЦИНА В XXI ВЕКЕ: РОЛЬ БИОТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ Витебск-Самарканд, 30 января 2025 года Организаторы: Витебская государственная академия ветеринарной медицины, Витебск.
 9. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.
 10. ЮНУСОВ, Х., & КОМИЛЖОНОВ, С. РОЛЬ ВЕТЕРИНАРНОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ: К 100-ЛЕТИЮ ВИТЕБСКОЙ ОРДЕНА" ЗНАК ПОЧЕТА" ГОСУДАРСТВЕННОЙ АКАДЕМИИ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ. Витебская государственная академия ветеринарной медицины КОНФЕРЕНЦИЯ: РОЛЬ ВЕТЕРИНАРНОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ: К 100-ЛЕТИЮ ВИТЕБСКОЙ ОРДЕНА" ЗНАК ПОЧЕТА" ГОСУДАРСТВЕННОЙ АКАДЕМИИ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ Витебск, 04–05 ноября 2024 года Организаторы: Витебская государственная академия ветеринарной медицины.
 11. Бакиров, Б., Рузикулов, Н. Б., & Сейпуллаев, А. К. (2024). ВЛИЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ «MIOSTA H®» НА СОСТОЯНИЕ ОБМЕНА ВЕЩЕСТВ У КОРОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (3), 89-95.
 12. Досумбетович, А.С., и Кутлимуратович, С.А. Эффективные методы лечения скрытого хронического эндометрита у крупного рогатого скота в Каракалпакстане. *Академия Глоб* , 2 (05), 240-244.
 13. Хайдарова, Ш. Р. (2024). ДОКЛАД НА НМС КАФЕДРЫ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ НА ТЕМУ «ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ ГЕНДЕРА В ЛИНГВИСТИКЕ».
 14. Holmurotov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *IMRAS*, 7(3), 140-144.
 15. Berdiyev, B. Konvensial Yondashuv Asosida Talabalarni Mustaqil Ta'lim Olish Samaradorligining Didaktik Imkoniyatlarini Rivojlantirish. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*i, 675762.
 16. Holmurotov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 371-374.
 17. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. *Электронный инновационный вестник*, (2), 23-24.